



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### AFRIKA QO'NOG'I TURLI NAVLARINING BIOKIMYOVIY VA OZUQAVIYLIK XUSUSIYATLARI

D. R. Annamuratova,

b.f.n., dotsent, Urganch davlat universiteti, Urganch

Sh. R. Qadirova,

magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch

Abdullaeva M.O.

UrDU biologiya yo'nalishi talabasi.

O'simliklarning energetik va biologik ozuqaviylik ko'rsatkichlari chorva uchun ozuqabopligi bilan boholanadi. Ushbu ko'rsatkich ozuqa tarkibidagi organik va mineral moddalar birikmalarini o'zida mujassam etadi. O'z navbatida organik va mineral moddalar organizm uchun asosiy energiya manbai sifatida xizmat qiladi. Ozuqabop ekinlar asosan, quyidagi, ozuqa birligi, oqsil, uglevodlar, yog', mineral moddalar va vitaminlar miqdori bilan baholanadi [4].

Xom klechatka o'simliklarning ozuqabopligrini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uning tarkibi tsellyuloza (gemitsellyuloza) hamda lignin, kutin va suberin kabi moddalardan tashkil topgan. Xom klechatka organizm ovqat hazm qilish jarayonini normallashtirish uchun xizmat qiladi. Xom klechatka miqdori vegetatsiya davriga bog'liq bo'lган holatda o'zgarishi aniqlangan. O'simlik mahsulot pishish davrida xom klechatka miqdori ortishi mumkin. Bu o'z navbatida ozuqaning hazm bo'lishini kamaytiradi. Ozuqa sifatini belgilovchi yana muhim ko'rsatkichlardan biri bu azotsiz ekstraktiv moddalar (AEM) hisoblanadi. Uning tarkibi qand, gemitsellyuloza, insulin, organik kislotalar, glyukozidlar kabi moddalardan tashkil topgan. Azotsiz ekstraktiv moddalar organizm uchun energiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ozuqa tarkibidagi moylar tarkibi vosk, xlorofill, smola, rangli moddalar, fosftidlar kabi moddalardan tashkil topgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi moddalar almashinuvini yaxshilash, o'sish va rivojlanish jarayonlariga ta'sir etadi. Ozuqa sifatiga ta'sir etuvchi moddalardan biri bu vitaminlardir. Qayd etilishicha, ozuqabop ekinlar tarkibida 40 dan ortiq vitaminlar borligi aniqlangan [4].

Mineral moddalar miqdori ekin turlari va navlariga bog'liq bo'lган holda o'zgarishi mumkin. Chorva ekinlar ozuqaboplighiga uning tarkibidagi kaltsiy, fosfor, natriy,



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xlor, kaliy, magniy, oltingugurt kabilar makroelementlar hamda temir, rux, marganets, mis, kobolt, yod kabi mikroelementlar miqdori ham ta'sir etadi [2].

Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Buning uchun birinchi navbatda ozuqabop ekinlarni tanlash va ularning ozuqaboplilik xususiyatlari xudud sharoitida o'rganish davr talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 18 martida "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida chorvachilikni to'yimli ozuqa bilan ta'minlashda ozuqabop ekinlarning yangi navlarini tanlash, ularning agrotexnologiyalarini takomillashtirish, masalalariga ahamiyat qaratilgan. Afrika qo'nog'i ozuqaboplilik ko'rsatkichlarini aniqlash mazkur ekindan sifatli ozuqa tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu maqsadda Afrika qo'nog'i navlari don tarkibi kimyoviy tahlil qilindi.

Afrika qo'nog'i Respublikamizga introduktsiya qilingan yangi ozuqabop ekin turlaridan hisoblanadi. Shu sababdan Afrika qo'nog'ining biokimyoviy tarkibi bo'yicha ma'lumotlar yetarli emas. Afrika qo'nog'ining donida 67-76 % uglevod, 9-16 % protein, 4-16 % moy, temir hamda rux moddalarining mavjudligi aniqlangan. Keyingi yillarda MDH davlatlarida Afrika qo'nog'ining Sogur, Kormovos-151, Prialskoe-83 kabi navlari yaratilib ishlab chiqarishga joriy etilgan [5].

Tashqi muhit nafaqat o'simliklarning hosildorligiga balki uning biokimyoviy ko'rsatkichlariga ham ta'sir etishi Nafikovning tadqiqotlarida xam tasdiqlangan. Afrika qo'nog'ining don tarkibidagi oqsil miqdori Toshkent viloyatida 13,44 %, Jizzaxda 12,98 % va Qoraqalpog'istonda 11,86 % tashkil etgan. Azotsiz ekstraktiv moddalar organizm uchun energiya manbai bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ko'rsatkich Toshkent viloyati sharoitida 69,89 % ni tashkil etgan bo'lsa Qoraqalpog'istonda 69,81 % tashkil etgan. Kul miqdori Toshkent viloyatida 5,32 % va Qoraqalpog'istonda 5,98 % teng ekanligi qayd etilgan [3].

Xorazm viloyati sharoitida Afrika qo'nog'i don tarkibini biokimyoviy tahlil natijalari quyidagi (1-jadval) jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlarda don tarkibidagi azot miqdori 1,5 % ni, oqsil 10,84 % ni, yog' 7,5 % ni, klechatka 7,48 % ni kul miqdori 1,75 % ga teng ekanligi ko'rish mumkin.

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### 1-jadval Afrika qo'nog'i Xashaki-1 navining biokimyoviy tahlil natijalari

Nº	Biokimyoviy moddalar	Miqdoriy ko'rsatkichlar
1	Azot miqdori, %	1,5
2	Oqsil miqdori, %	10,84
3	Yog'liligi, %	7,5
4	Vitamin A	1638,50
5	Klechatka miqdori, %	7,48
6	Namlik miqdori, %	8,97
7	Kul miqdori, %	1,75

Ma'lumotlarni ilmiy manbalarda qayd etilgan ma'lumotlarga solishtirar ekanmiz Xorazm sharoitida ham Afrika qo'nog'i o'zining ozuqaboplif ko'rsatkichlarini namoyon etdi. Afrika qo'nog'i don tarkibidagi ko'rsatkichlar Xashaki-1 da 10,84 % ni tashkil etdi. Don tarkibidagi yog' miqdori 7,5 % ga teng bo'ldi [1].

Umuman olganda, Afrika qo'nog'i donining biokimyoviy ko'rsatkichlari ulardan ozuqa sifatida chorvachilikda va parrandachilikda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Mazkur ekindan chorva va parranda ozuqasini tayyorlashda foydalanish mumkinligi aniqlandi. Ushbu ekinlardan ozuqa sifatida foydalanish Xorazm viloyati sharoitida chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Annamuratova D.R., Qodirova Sh.R. Xorazm tuproq – iqlim sharoitida Pennisetum glaukum (L.) R.Br. turli nav namunalarining bioekologik xususiyatlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi Axborotnomasi. 2024-3/1. Xiva 2024.
2. Массино И.В., Касимов М. Агротехника выращивания зернового низкорослого
3. Нафиков М.М Сахарное сорго и другие культуры на силос. // Земледелие, 2007, -№ 4. - С.38.
4. Тороп Е.А. Корреляции между признаками озимой ржи при разной густоте растений // Физиологические аспекты продуктивности растений. Материалы н.-м. конференции. Изд. «Орлик». 2004. -С.264-269.
5. Yunusov O.X. Jo'xori (sorghum vulgare (pers.)) va afrika qo'nog'i (pennisetum glaukum (l.) r.br) turli nav namunalarining sho'rlangan tuproq sharoitidagi fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari. b.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Buxoro. 2021.